

XIZMAT KO'RSATISH KORXONAIARINING INNOVATSION  
RIVOJIANISH KO'RSATKICHIARI TAHIII

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Samarqand filiali.*

*Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes*

*kafedrasi o'qituvchisi*

***Umirov Islombek Furqativich***

*+998933516500*

*TDIU Samarqand filiali, talabasi*

***Jumayev Yusufali Nuriddin o'g'li***

*yusufalijumayev73@gmail.com*

*+998882004395*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot innovatsiyalarni aniqlash va baholash usullarini ko'rib chiqadi, ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi va natija sifatida taqdim etiladigan ko'rsatkichlar asosida innovatsiyani dastlabki rivojlanadirish strategiyalarini ishlab chiqadi. Mazkur ish tahlil natijalarini o'z ichiga oladi hamda amaliy tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, ko'rsatkichlar, tahlil, samaradorlik, rivojlanadirish.

**Ключевые слова:** инновации, показатели, анализ, эффективность, развитие.

**Keywords:** innovation, indicators, analysis, efficiency, development.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy funksiyani ham bajaradi. Bu esa shaxsiy masalalarga daxldor ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olish imkonini beradi. Intensiv rivojlanish yo'li bo'yicha uzoq muddatli iqtisodiy va madaniy o'sishni innovatsion faoliyatsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarning asosiy mezonlari bo‘lib, yangilik, amaliy ahamiyati va realizatsiya qilish imkoniyatlari (xizmatlarga iste’molchilar ehtiyojlarini to‘liq qondirish imkoniyatlari) hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion jarayonlarning elementlari sifatida innovatsion g‘oyaning yaratilishi, innovatsiyalar marketingi, innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash, innovatsiyalarni o‘zlashtirish, tijoratlashtirish va kelgusidagi harakatlanishi namoyon bo‘ladi.

### **2.9-jadval**

#### **O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni(yil boshiga, birlikda)**

| <b>Sohalar va tarmoqlar</b>   | <b>Yillar</b> |             |             |             |             | <b>2023-yil<br/>2019-<br/>yilga<br/>nisbatan<br/>o‘sish,<br/>(%)</b> |
|---|---------------|-------------|-------------|-------------|-------------|--|
|   | <b>2019</b>   | <b>2020</b> | <b>2021</b> | <b>2022</b> | <b>2023</b> |  |
| Jami xizmat ko‘rsatish korxonalari soni<br>Shu jumladan:  | 11779<br>7    | 15788<br>1  | 19826<br>6  | 22946<br>2  | 26419<br>5  | 2,2 marta  |
| Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni                                     | 70902         | 10108<br>1  | 13219<br>2  | 15712<br>9  | 18291<br>7  | 2,6 marta  |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni | 19812         | 25636       | 30111       | 33104       | 36811       | 185,8  |
| Axborot va aloqa sohasida faoliyat  | 6975          | 7901        | 9517        | 10587       | 12204       | 175,0  |

|   |       |       |       |       |       |       |  |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|-------|--|
| ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni   |       |       |       |       |       |       |  |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni | 6778  | 7903  | 9145  | 10391 | 11597 | 171,1 |  |
| Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni           | 13330 | 15360 | 17301 | 18251 | 20666 | 155,0 |  |

Respublikamiz xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2023-yil boshida 264195 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2019-yil boshiga nisbatan 2,2 martaga oshgan. Savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar sonining 2019-2023-yillar boshida 2,6 martaga o‘sishi raqamli savdo xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar soni ham muntazam oshib borayotganligi natijasi hisoblanadi. 2023-yil boshida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 36811 ta (2019-yil boshiga nisbatan – 185,8%), axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 12204 ta (2018-yilga nisbatan – 175,0%), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11597 ta (2018-yilga nisbatan – 171,1%), tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 20666 tani (2019-yil boshiga nisbatan – 155,0%) tashkil qilgan (2.9-jadval).

Respublikamiz xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritadigan subyektlar sonining yuqori ekanligi ushbu sohada faoliyat yuritadigan korxonalarning rivojlanish holati bevosita va bilvosita omillar ta’siri bilan belgilanadi. Bunda

sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar rivojlanishi resurslar ta'minoti va xizmat ko'rsatish me'yorlarini shakllanishiga bog'liq. mazkur me'yorlar asosida korxonalarning investitsion faoliyatni amalga oshirish miqyosi va ahamiyati aniqlanadi. Bu esa soha korxonalarini jadal rivojlanishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Servis tashkilotlarida innovatsiyalarning bir qator tasnifiy belgilarini ajratish mumkin. Uning obyekti o'zgarishiga bog'liq holda quyidagi turdag'i innovatsiyalarni ajratish mumkin:


- texnik – yangi turdag'i asbob-uskunalar, qurilmalar, jihozlar hamda xizmat ko'rsatishda mehnatning texnik va texnologik usullarini joriy etish bilan bog'liq;
- tashkiliy-texnologik – xizmatlarning yangi turlari, xizmat ko'rsatishning yanada samarali shakllari bilan bog'liq;
- boshqaruv – menejment usullari va shakllaridan foydalangan holda tashkilotning ichki va tashqi aloqalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan;
- kompleks – bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish faoliyatining turli jihatlari va tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan.
- Samarqand viloyatida 2023-yilda jami joriy qilingan innovatsiyalarning

1,1 %i ta'limi rivojlantirish, 2,4 %i axborot va aloqa sohasiga yo'naltirilgan. Bu sohalar hozirgi kunda xizmat ko'rsatishning drayver sohalaridan hisoblanadi (2.3-rasm).

– ma'lumki, xizmat ko'rsatish korxonalarining faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish barcha sohalarda sodir bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning uchta asosiy guruhi mavjud:

- 1) endogen – tashqi muhitdagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan;
- 2) ekzogen – korxonaning xizmat ko'rsatish sohasidagi funksiyalarini saqlash yoki o'zgartirish bilan ishslash jarayonida uning ehtiyojlari bilan bog'liq;

- 3) refleks – korxonaning tashqi muhitdagi faoliyati natijalariga ko‘ra yuzaga keladi va “teskari aloqa” tufauli ichki o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi.<sup>1</sup>



#### **2.4-rasm. Samarqand viloyatida xususiy korxonalarning ishlanma va tadqiqotlariga investitsiya hajmi<sup>2</sup> (mln. so‘m)**

- 2.4-rasmda Samarqand viloyatida xususiy korxonalarning ishlanma va tadqiqotlariga investitsiya hajmi keltirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 450 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 1380 mln. so‘mga oshgan.
- Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarga zamonaviy yondashuv tobora ko‘proq innovatsiyalarni jarayon sifatida ko‘rib chiqishga asoslanmoqda. Asosiy e’tibor yangilanish va doimiy takomillashtirish usullari va elementlariga qaratilgan. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatga dosh berishi va uning gullab-yashnashi qiumat yaratish jarayonining natijasi bilan uzviy bog‘liq. Bunga erishish ushun korxona innovatsion strategiyani ishlab shiqishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Toshbulatov, S. (2018). O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni boshqarish. Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo‘mitasi.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi.

<sup>1</sup> Djalilov F.A. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari. diss. iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa d-ri (Phd) diss. – Samarqand: SamiSi, 2024. – B. 79.